



## MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz/>



### O‘ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI

**Islamov Baxtiyor Anvarovich,**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

G.V.Plexanov nomidagi RIU Toshkent filiali professori

e-mail: [bakhtiyor.is@gmail.com](mailto:bakhtiyor.is@gmail.com)

**Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafvna**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

e-mail: [sulya@mail.ru](mailto:sulya@mail.ru)

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a11](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a11)

**Annotatsiya:** Zamonaviy texnologiyalar, xususan, mobil telefonlar orqali taqdim etiladigan raqamli aloqa mehnat migratsiyasining barcha jabhalariga ta'sir qiladi: u migratsiyaga tayyorgarlik ko'rish, migratsiyani amalga oshirish va boradigan mamlakatlarda ma'lumotlarga kirishni ta'minlash, pul o'tkazishni osonlashtirish hamda migrantlarning oilalari bilan aloqada bo'lishiga yordam beradi. Raqamli vositalar va platformalar barcha sohalarda, jumladan, mehnat migratsiyasi va xizmatlarni boshqarishda qo'llanilmoqda. Garchi bu texnologiyalarning ba'zilari mehnat migrantlari uchun maxfiylik va xavfsizlikka oid xavotirlarni keltirsa-da, ular migrantlarga ma'lumotlarga oson kirish, tez va xavfsiz xizmatlarni taklif qiladi. Rivojlanish Strategiyasini amalga oshirish sharoitida Yangi O'zbekistonda mehnat migrantlarini qo'llab-quvvatlash uchun raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalanishda qulay sharoitlar yaratilyapdi.

**Kalit so'zlar:** mehnat migratsiyasi, raqamlashtirish, mobil ilovalar, elektron platformalar, mehnat migrantlari, bandlik agentliklari, “labor-migration” dasturi, “my migration” mobil ilovasi.

### НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЦИФРОВИЗАЦИИ ПРОЦЕССОВ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Исламов Бахтиёр Анварович,**

д.э.н., профессор

Ташкентского филиала РЭУ им. Г.В. Плеханова

**Газијева Сулхия Саидмашрафвна**

Базовый докторант Ташкентского государственного

университета востоковедения

**Аннотация:** Цифровая связь, обеспечиваемая современными технологиями, особенно мобильными телефонами, затрагивает все стороны трудовой миграции: это

подготовка к миграции, осуществление миграции и обеспечение доступа к информации в странах назначения, а также содействие денежным переводам и семьям мигрантов. Цифровые инструменты и платформы используются во всех секторах, включая трудовую миграцию и управление услугами. Хотя некоторые из этих технологий вызывают озабоченность у трудящихся-мигрантов в отношении конфиденциальности и безопасности, они предлагают мигрантам легкий доступ к информации, быстрые и безопасные услуги. В условиях реализации Стратегии развития в Новом Узбекистане создаются благоприятные условия для использования широких возможностей цифровизации по поддержке трудовых мигрантов.

**Ключевые слова:** трудовая миграция, цифровизация, мобильные приложения, электронные платформы, трудовые мигранты, агентства по трудоустройству, программное приложение «labor-migration», мобильное приложение «my migration».

---

## **NEW OPPORTUNITIES FOR DIGITALIZATION OF LABOR MIGRATION PROCESSES IN UZBEKISTAN**

**Islamov Bakhtiyor Anvarovich,**

d.e.s., professor of the Tashkent branch of PRUE  
named after G.V. Plekhanov

**Gazieva Sulkhiya Saidmashrafvna**

Doctoral student of Tashkent state university of oriental studies

**Abstract:** Digital communication provided by modern technologies, especially mobile phones, effects on all aspects of labor migration: i.e. preparation for migration, implementation of migration and provision of access to information in destination countries, facilitation of remittances to the families of migrants. Digital tools and platforms are being used in all sectors, including labor migration and service management. Although some of these technologies raise privacy and security concerns for migrant workers, they offer migrants easy access to information, fast and rather secure services. In the conditions of realization of the the Development Strategy in New Uzbekistan favorable conditions for using new digitization opportunities to support labor migrants are being created.

**Keywords:** labor migration, digitization, mobile applications, electronic platforms, labor migrants, employment agencies, "labor-migration" program, "my migration" mobile application.

### **Kirish**

Yangi O‘zbekistonda mamlakatni raqamlashtirishga katta e‘tibor qaratilib, bu borada keng ko‘lamli ishlar boshlab yuborildi. Ma‘lumki, COVID-19 paytida 2020-yil mamlakatimizda “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e‘lon qilingan edi. Pandemiya davrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni imzolanib<sup>1</sup>, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va elektron hukumatga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilib, unda Prezident Sh.M.Mirziyoyev “raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat

---

<sup>1</sup> Ш. Мирзиёев. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства». От 28 апреля 2020 г. № ПП-469922 <https://lex.uz/docs/4800661>

iqtisodiyotining kelajagi yo‘q”ligini ta’kidladi<sup>2</sup>. Shu bilan birga “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilindi<sup>3</sup>. 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish jarayonida axborot va kommunikatsiyalar sohasida yalpi qo‘shilgan qiymat 2 barobardan ziyod oshib, 11,8 trillion so‘mga (1 milliard AQSH dollaridan ortiq) yetdi. O‘zbekistonda IT-parklar tashkil etilganidan buyon soha eksporti hajmi 50 barobar oshib, 46 million dollarga yetdi. Park rezidentlari soni 147 tadan 500 taga ko‘paydi, 300 dan ortiq yangi korxonalar ochilib, 8500 tasi tashkil etildi. Davlat boshqaruvini isloh qilish va raqamlashtirish natijasida davlat xizmatlarining 56 %i interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatila boshlandi. O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning umumiy soni 27,2 million kishiga yetdi. Ayni paytda IT-parklarda 11 mingdan ortiq yoshlar mehnat qilmoqda<sup>4</sup>. 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida mamlakatimizni raqamlashtirishni kuchaytirishga qaratilgan yanada ulkan vazifalar belgilangan<sup>5</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldagi PQ-3839-sonli «O‘zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-sentyabrdagi 725-sonli «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko‘rib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 2019-yil 20-avgustdagi PF-5785-sonli «Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a‘zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to‘g‘risida»gi farmoni, 2019-yil 23-avgustdagi VM-713-sonli «Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-sonli «Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 2021-yil 30-iyuldagi PQ-5205-sonli «Xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, 2022-yil 1-martdagi «Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston respublikasi fuqarolarini va ularning oila a‘zolarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori,

<sup>2</sup> Ш.Мирзиёев. «Без цифровой экономики нет будущего у экономики страны», Uza, 22 сентября 2020 г. состоялось видео-селекторное совещание по вопросам внедрения цифровой экономики и электронного правительства в отраслях и регионах <https://uza.uz/ru/posts/prezident-bez-tsifrovoy-ekonomiki-net-budushchego-u-ekonomik-22-09-2020>

<sup>3</sup> Ш.Мирзиёев. Указ Президента Республики Узбекистан, от 05.10.2020 г. № УП-6079 Об утверждении Стратегии «ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН-2030» и мерах по её эффективной реализации. <https://lex.uz/ru/docs/5031048>

<sup>4</sup> К. Абдурахманов. Развитие ИКТ в гармонии с национальным менталитетом. «Бизнес DAILY Биржа», №82(2965), 25.10.2022

<sup>5</sup> Sh.Mirziyoyev. 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” <https://lex.uz/docs/5841063>

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 86-maqsadi “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta'minlash hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish” va mazkur sohaga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Mehnat migratsiyasi jarayonlarini raqamlashtirish bilan bog'liq masalalar ko'plab xorijlik va MDH olimlari tomonidan o'rganilgan. Yuqori malakali ishchilarning xalqaro virtual migratsiyasini o'rganish va tahlil qilish xorijlik olimlar, A.Anish<sup>6</sup>, J.Makkarti<sup>7</sup>, B.Xiang hamda O.Kassi tomonidan katta e'tiborga sazovor bo'ldi. Xususan, amerikalik hind olimi Anish "virtual migratsiya" tushunchasini ilk bora muomalaga taklif qilib, mehnat migratsiyasi transchegaraviy amaliyot sifatida mahalliy va xorijiy tadqiqot va nazariyalarni konseptual jihatdan shubha ostiga qo'ydi. Xitoylik tadqiqotchi Xiang ta'kidlaganidek, "mehnat migranti" atamasini o'rganish mavzusi asosan, davlatlar, ayniqsa retsipient mamlakatlar nuqtai nazaridan tushunish uchun mo'ljallangan zamonaviy tadqiqotchilarning ixtirosidir<sup>8</sup>. Angliyalik tadqiqotchi Kassining fikricha, mehnat bozorida yuz berayotgan o'zgarishlar imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda jiddiy xavflarni ham vujudga keltirmoqda. Bunga javoban turli kasb yo'nalishlarida ko'nikmalarni rivojlantirish, ijtimoiy siyosatni yaxshilash zarur hisoblanadi<sup>9</sup>.

Raqamlashtirish mehnat munosabatlarini tubdan o'zgartirish bilan birga, bir vaqtning o'zida mobillikning yangi ko'rinishlarini shakllanishiga turtki berdi. Virtual mehnat migratsiyasi tushunchasi, mehnat migratsiyasining ishchi kuchi chegaralar orqali jismoniy harakati sifatida qabul qilingan ta'rifni murakkablashtirib yubordi<sup>10</sup>. Raqamli mobillikning konseptual va huquqiy jihatdan yangi shakllarining paydo bo'lishi, mehnat migratsiyasi, tartibga solish va chegara bilan bog'liq tushunchalarning ta'rifini shubha ostiga qo'ydi. Belgiyalik olim De Stefano mehnatning 3 turini taklif qildi: kapital platformalari bilan ishlash, ilovalar bilan ishlash va jamoaviy mehnat yoki kraudvorking<sup>11</sup>.

Xalqaro mehnat tashkilotining 2018-yilda chop etilgan “Raqamli mehnat platformalari” nomli to'plamda ham virtual mehnat migratsiyasiga ta'rif berib

<sup>6</sup> Aneesh A. Virtual migration: The programming of globalization. Durham; London: Duke University Press, 2006. 208 p. DOI: 10.2307/j.ctv125jms5.

<sup>7</sup> McCarthy, J. (2011). Computer Scientist Known as the Father of AI. Independent. Retrieved March 1, 2020, from <http://www.independent.co.uk/news/obituaries/john-mccarthy-computer-scientist-known-as-the-father-of-ai-6255307.html>

<sup>8</sup> Xiang, B. (2014). The Would-Be Migrant: Post-Socialist Primitive Accumulation, Potential Transnational Mobility, and the Displacement of the Present in Northeast China. *Trans-Regional and National Studies of Southeast Asia*, 2(2), 183–199.

<sup>9</sup> Kässi O., Lehdonvirta V. Online Labour Index: Measuring the Online Gig Economy for Policy and Research. MPRA Paper No. 74943. Oxford Internet Institute. 03.11.2016. 19 p.

<sup>10</sup> Z. Kadirova and S.Gazieva. 2021. Theoretical bases of international labor migration processes, *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 1(2) 77-84

<sup>11</sup> De Stefano V. The Rise of the ‘Just-in-Time Workforce’: On-Demand Work, Crowd Work and Labour Protection in the ‘Gig-Economy’. *Comparative Labor Law & Policy Journal*. 2016. Vol. 37, No. 3. Pp.461–471

o‘tilgan. Virtual mehnat migratsiyasini onlayn kapital, mehnat va axborot oqimlari orqali milliy chegaralarni kesib o‘tuvchi ish sifatida aniqlash mumkinligi keltirilgan. Bu, aslida, mahalliy, milliy va global kontekstlarni birlashtirgan offshor ishchi kuchidir<sup>12</sup>.

A.Anish virtual migratsiyaga misol tariqasida AQSH iqtisodiyoti uchun kompyuter texnologiyalari bo‘yicha o‘z mamlakati sarhadidan chiqmasdan turib ishlaydigan hind mutaxassislarini keltiradi.

Rossiyalik tadqiqotchi T.B.Rusakova "virtual mehnat bozori global axborot makonida zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida mavjud bo‘lgan mehnatga oid axborot xizmatlarini sotish va sotib olish bo‘yicha geografik taqsimlangan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimini tushunadi"<sup>13</sup>.

Xususan, mehnat migratsiyasi haqidagi ilmiy tushunchalar evolyutsiyasi, uning mehnat bozori va iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyati, mehnatda sun'iy intellektdan foydalanishni tizimli o'zgartirish kontekstida inson kapitali muammolari, bandlik va migratsiya Q.Abduraxmonov, N.Zokirova, B.Islomov, S.Mansurov mehnat migratsiyasi ilmiy konsepsiyalari evolyutsiyasi, uning mehnat bozori va iqtisodiyotning rivojlanishidagi ahamiyati, O‘zbekistonda migratsiya jarayonlarini L.Maksakova, O‘zbekistondagi mehnat migratsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, tashqi va ichki mehnat migratsiyasini D.Rasulova, O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, uning me‘yoriy-huquqiy asoslari va u bilan bog‘liq muammolar hamda mehnat migrantlarining pensiya ta‘minoti kabi masalalar B.Umurzakov va Sh.Isakulov, aholi migratsiyasi, uning etnik tarkibidagi o‘zgarishlar, mehnat migratsiyasi jarayonlarining hududiy xususiyatlari R.Ubaydullaeva, O‘zbekistonning xalqaro mehnat bozoriga integratsiyallashuvi masalalari Z.Qodirova va aholini ish bilan bandligini ta‘minlashda migratsiyaning o‘rni E.Muhitdinovlar ilmiy ishlarida tadqiq etilgan<sup>14</sup>. Shu bilan birga, ta‘kidlab o‘tish

<sup>12</sup> Digital labour platforms and the future of work: Towards decent work in the online world. Geneva: International Labour Office, 2018. 165 p. ISBN: 978-92-2-031024-3.

<sup>13</sup> Русакова Т.Б. Сущность и направления развития виртуального рынка труда в Российской Федерации // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Экономические науки. 2019. Т. 12, № 5. С. 44–57. DOI: 10.18721/JE.12504

<sup>14</sup> Б.Исламов “Социально-экономические аспекты миграционных процессов в независимых странах Центральной Азии”, Acta Slavica Iaponica, Journal of Slavic Research Center, Hokkaido University, Tomus XVI, 1998, pp. 184-206, Mansurov Saidnumon, Abdurakhmanov, Kalandar Islamov Bakhtiyor, Zokirova Nodira. 2022. Abdurakhmanov, Kalandar, Islamov Bakhtiyor, Zokirova Nodira, Hiwatari, Masato. Systemic Transformation and Sustainable Development: Case of Uzbekistan, Monograph, Jakarta, Gunadarma University Press, 2016 г., pp. 230. Б. Исламов “Социально-экономические аспекты миграционных процессов в независимых странах Центральной Азии”, Acta Slavica Iaponica, Journal of Slavic Research Center, Hokkaido University, Tomus XVI, 1998, pp. 184-206, Mansurov Saidnumon, Abdurakhmanov, Kalandar Islamov Bakhtiyor, Zokirova Nodira. 2022. The Application of Artificial Intelligence in Labour Economics: using migration from CIS countries to Russian Federation as an example. <https://doi.org/10.1145/3584202.3584242> (doi: 10.1145/3584202.3584242); Максаква Л.П. Узбекистан в системе международных миграций. Постсоветские трансформации: отражение в миграциях / Под ред. Зайончковской Ж.А. и Витковской Г.С. -М.: ИТ "АдамантЪ". 2009. Максаква Л.П. Экспорт рабочей силы из Узбекистана / Центр миграционных исследований 2004-2010 —<http://migrocentr.ru/publ/trudm/07.php>; Расулова Д.В. Ишчи кучи миграцияси ривожланишининг назарий асослари. Монография.Т.,2010.; Умурзаков Б.Организационно-правовые основы регулирования трудовой миграции в Узбекистане. халқаро муносабатлар.Т.,2008.№2.С.52-59.; Умурзаков Б., Ирнараров Ф. Доступ трудовых мигрантов из Узбекистана, работающих в России, к пенсионной накопительной системе/ Доступ трудовых мигрантов из Кыргызстана,

kerakki, raqamlashtirish sharoitida O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha tizimlashtirilgan tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Bu esa, o‘z navbatida, tanlangan mavzuning dolzarb ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada empirik, tasviriy statistika, guruhlashtirish, qiyosiy va dinamik tahlil tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va tadqiqot natijalari**

Raqamlashtirish mehnat migratsiyasi jarayonlari uchun ham yangi imkoniyatlar ochadi. Migratsiyani boshqarish uchun xizmatlarni raqamlashtirish samaradorlik, shaffoflikni ta‘minlashi, shuningdek, migratsiya bilan bog‘liq ayrim muammolarni tejamkorlik bilan hal qilishi mumkin. Arzon narxlardagi smartfonlar, internetga kirish va internet tarmog‘ining tarqalishi mobil tarmoqlar va telefon ilovalari hatto kam ta‘minlangan oilalarga, jumladan, migrantlarga ham ushbu texnologiyadan foydalanishga imkon berdi<sup>15</sup>. Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi hisobotida raqamli texnologiyalarning migratsiyani qanday osonlashtirgani qayd etilgan:

- retsipient mamlakat haqidagi ma‘lumotlarni, undagi afzalliklarni oldindan bilish imkoniyati;

- mobil pul platformalari orqali migrantlar yoki ularning oila a‘zolarining tranzit vaqtida va manzilga yetib borishi uchun shaxsiy moliyaviy resurslaridan foydalanish imkoniyati;

- migrantlar tarmog‘iga kirish va retsipient mamlakatdagi mahalliy ma‘lumotlarga kirish orqali kelgan mamlakatga ko‘nikishni osonlashtirish;

- uyali telefonlarda mavjud bo‘lgan xabarlar, ovozli qo‘ng‘iroqlar va ijtimoiy tarmoq ilovalari orqali o‘z mamlakatidagi oilalar va tarmoqlar bilan doimiy aloqalar;

Bundan tashqari, mobil telefonlar migrantlarga keng ko‘lamli muhim ma‘lumotlar va xizmatlardan, jumladan, uy-joy, ishga joylashish yoki o‘qitish imkoniyatlari, mahalliy sog‘liqni saqlash va transport, maktablar va bolalar parvarishi, madaniy yoki diniy tadbirlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etish orqali ularga yangi mamlakat va jamiyatga joylashishda yordam beradi. (ayniqsa, o‘z diasporasida). Telefonlar, shuningdek, migrantlarning boshpana yoki yashash uchun arizalari ko‘rib chiqilayotganda hokimiyat bilan muloqot qilish imkonini beradi va uy xizmatchilari kabi zaif guruhlar uchun shaxsiy

---

Таджикистана и Узбекистана, работающих в Российской Федерации, к пенсионной накопительной системе. Бишкек. 2011. С.29-37.; Исакулов Ш. Социальная защита прав трудовых мигрантов Республики Узбекистан и российской Федерации// Вестник ПАГС. М., 2009. С.192-196.; Исакулов Ш. Диверсификация направлений миграционных потоков// Халқаро муносабатлар. Т., 2013. №1. С.32-36.; Убайдуллаева Р.А. Анализ факторов толерантности узбекистанского общества. Социол. исслед. М., 2013. №3., Қодирова, З. Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашуви. Тошкент 2016, Мухитдинов Э.М. Аҳолини иш билан бандлигини оширишда ташқи меҳнат миграциясининг аҳамияти. Илмий электрон журнал. «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» №4, 2018.

<sup>15</sup> Sh.Mirziyoyev. 2019-yil 20-avgustdagi PF 5785-sonli “Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston respublikasi fuqarolari va ularning oila a‘zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to‘g‘risida” <https://lex.uz/docs/-4482648>

xavfsizlik mexanizmi hisoblanadi<sup>16</sup>. Til o'rganish va tarjima dasturlari migrantlar tomonidan tobora ko'proq foydalanilmoqda. Ijtimoiy media platformalari migrantlarga boradigan mamlakat ichidagi va undan tashqaridagi migrantlar tarmoqlari bilan bog'lanish imkonini beradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, mobil telefonlar migrantlarning barcha muammolariga javob emas, ular muayyan vaziyatda ularga kerakli yordamni ko'rsatadi<sup>17</sup>. Mobil telefonlar, shuningdek, migrantlarga oila bilan aloqada bo'lishga yordam berib, ularga donor mamlakatning siyosiy va madaniy hayotida qatnashish imkonini beradi. Geografik jihatdan migrant boshqa mamlakatda joylashgan bo'lsada raqamli texnologiyalar orqali doimo aloqada bo'lgani uchun retseptient mamlakatga ham tez integratsiyalashib ketadi. Mobil telefonlar, shuningdek, oilalarga moliyaviy yordam ko'rsatish uchun arzonroq va tezroq pul o'tkazish imkonini beradi. Shunday qilib, axborotni raqamlashtirish migratsiya boshqaruvi va yetakchiligining barcha jabhalarida, shuningdek, migratsiyaning barcha bosqichlarida muhim aloqa vositasi hisoblanadi.

Migratsiya boshqaruvi sohasida ASEAN (Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari hamjamiyati) hukumatlari migratsiya jarayoni va migrantlarga xizmatlar ko'rsatishning turli jihatlarini uchun raqamli boshqaruv tizimlari va ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqdilar. Ushbu tizimning afzalliklaridan ba'zilari quyidagilardir: tezkor joylashtirish, jarayonlarni tezlashtirish, vaqt va xarajatlarni kamaytirish; migratsiya siklining barcha bosqichlarida shaffoflik va javobgarlikni oshirishdan iborat<sup>18</sup>.

Raqamli boshqaruv platformalari o'z ichida mehnat shartnomalari, ish haqi varaqalari yoki tibbiy ma'lumotnomalar kabi muhim hujjatlarni saqlaydi. Masalan, ish beruvchi yoki agentliklar o'rtasida shartnoma shartlari, to'lovlar yoki boshqa masalalar yuzasidan kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin<sup>19</sup>. Bundan tashqari, onlayn ro'yxatga olish xizmatlari tizimi va real vaqtda onlayn ma'lumotlar bazasi xizmatlarini joriy etish bo'yicha jahon amaliyotiga tayanish xorijda ishga joylashish tartib-qoidalarini boshqarishda muhim ahamiyatga ega va ularni raqamlashtirish mumkin<sup>20</sup>. Raqamli platformalar ishga qabul qilish jarayonidagi xarajatlarni kamaytirishi va ishga qabul qilish amaliyotida javobgarlikni oshirishi mumkin. Shuningdek, ular ishga qabul qilish agentliklarini kuzatishda va ularni javobgarlikka tortishda yordam berishi mumkin. Platformalar qora ro'yxatga kiritilgan ish agentliklari uchun ogohlantirishlardan foydalanishi mumkin. Ish agentliklari mehnat migrantlari bilan bog'lanish, ular haqida so'rash, ularning muammolari yoki shikoyatlarini hal qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi mumkin. Onlayn

<sup>16</sup> Islamov B., Kadirova Z., Gaziyeva S. Digitization measures in the regulation of labor migration processes in Uzbekistan // ACM, New York, NY, USA, ICFNDS '22, December 15, 2022. 328-337 pp.

<sup>17</sup> Shveytsariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi (SDC) 2018

<sup>18</sup> MOT. Цифровизация и будущее миграции. Презентация на круглом столе по трудовой миграции в Азии. Будущее трудовой миграции в Азии. Вызовы и возможности в следующем десятилетии. 7 февраля 2020 г.

<sup>19</sup> MOT. 2018. Как цифровизации поможет добиться справедливой миграции? 31 октября. [https://www.ilo.org/asia/media-centre/statements-and-speeches/WCMS\\_648541/lang--en/index.htm](https://www.ilo.org/asia/media-centre/statements-and-speeches/WCMS_648541/lang--en/index.htm)

<sup>20</sup> АБР. 2020. Перспективы развития Азии – 2020. Как продвигаются инновации в Азии?

platformalar, shuningdek, mehnat migrantlariga “baholash va ko‘rib chiqish” rukni orqali ongli tanlov qilishda yordam berishi mumkin. Qabul qiluvchi mamlakatda ilova va platformalar mehnat migrantlarini o‘z vaqtida, dolzarb va moslashtirilgan ma‘lumotlar bilan ta‘minlash, munosib va samarali mehnat sharoitlarini yaratish, pul o‘tkazmalari va moliyaviy qamrab olish muammolarini hal qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Mobil to‘lov tizimlari pul o‘tkazmalari xarajatlari va moliyaviy inklyuziya muammosini hal qiladi. Ilovalar pul o‘tkazmalari, elektron banking va mobil to‘lovlar uchun raqamli yechimlarni taqdim etadi. Yangi raqamli vositalar shaffoflikni oshiradi va pul o‘tkazmalari operatorlari o‘rtasidagi raqobatni kuchaytiradi va pul o‘tkazmalari xarajatlarini kamaytiradi.

Kelgandan keyingi va qaytish bosqichida raqamli dasturlarga quyidagilar kiradi: Ishonch telefoni ilovalari, ma‘lumotlar bazalari va migrantlar farovonligini boshqarish uchun ariza platformalari (shu jumladan shikoyatlar), ishchilarning adolatga kirishini osonlashtiradi. Raqamli vositalar migrantlarga tashkilot va ishchi kuchi bilan bog‘lanishga yordam beradi hamda ishchilarga yollovchilar, ish beruvchilar va boshqa vositachilarni baholash va tekshirish imkonini beradi<sup>21</sup>.

Yangi O‘zbekiston Respublikasi mehnat migrantlarini qo‘llab-quvvatlash uchun raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalanishda qulay sharoitga ega. Xususan, so‘nggi 3 yilda mobil aloqa abonentlari soni qariyb 3 millionga oshgan. Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, abonentlar soni 25,8576 millionga yetdi. Taqqoslash uchun, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida aholining 44 %i internetdan foydalansa, O‘zbekistonda 78% aholi internet foydalanuvchisidir<sup>22</sup>.


2008-2021-yillar davomida O‘zbekistondan xorijga ishlash uchun ketayotgan migrantlar sonining barqaror, xususan 2010-2014-yillar davomida 2 baravarga, 2015-2018-yilda esa 3 baravarga o‘sishi kuzatilgan. O‘z navbatida 2015-yilda Rossiya migratsiya siyosatida kuzatilgan cheklanishlar sababli 2015 va 2016-yillarda 4-6% ga hamda kutilmaganda yuzaga kelgan pandemiya tufayli 2019-yilda 18%ga va 2020-yilda 75% ga xorijga ketayotgan o‘zbekistonlik migrantlari soni qisqargan.

Respublikamizdagi mehnat resurslari bilan mehnat migrantlari sonini taqqoslar ekanmiz, xorijga ishlashga ketgan mehnat migrantlarining jami mehnat resurslariga nisbatan ulushi 2010-yildan 2017-yilga qadar o‘rtacha 6% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2018-yilda esa, ularning soni eng yuqori darajaga ya‘ni, 4,13 million kishiga etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 22% ni tashkil qildi.

---


<sup>21</sup> Kadirova Z., Gaziyeva S. Regulation of labor migration processes in Uzbekistan // Journal of marketing, business and management. Vol. 1 ISSUE 10. January 2023. 41-48 pp.

<sup>22</sup> “Bugungi kunda O‘zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 27,2 milliondan oshgan” <https://kun.uz/uz/news/2022/01/10/ozbekistonda-internet-xizmatidan-foydalanuvchilar-soni-malum-qilindi>



**1-rasm. 2008-2021-yillarda respublika bo'yicha jami mehnat resurslari soni va mehnat migrantlari<sup>23</sup>**

O'zbekistonlik mehnat migrantlarining asosiy qismi MDH mamlakatlariga, xususan Rossiya Federatsiyasiga ishlashga ketadilar. Chunonchi, 2010-yilda MDH mamlakatlariga 645 ming kishi, boshqa xorijiy davlatlarga esa, 12,5 ming kishi ishlashga ketgan bo'lsa, 2021-yilda ular mos ravishda 1,4 mln va 115 ming nafar kishini tashkil etgan. Qayd etish joizki, biz yuqorida ta'kidlagan xorijga chiqib ketgan o'zbekistonlik migrantlar soni eng yuqori cho'qqiga etgan 2018-yilda MDH mamlakatlariga ketgan o'zbekistonlik migrantlar jami mamlakatdan chiqib ketgan migrantlarning 98%ini tashkil etgan.



**2-rasm. 2008-2021-yillarda MDH va boshqa xorij davlatlariga ishlashga ketgan o'zbekistonlik mehnat migrantlari soni<sup>24</sup>**


Xususan, TMMMA tomonidan 2021-yil yakuniga ko'ra, 108 ming nafar fuqaro xorijiy davlatlarda ishga joylashtirilgan bo'lib, ularning 93% i Rossiyada ishlaydi. 2022-yilda esa, 18,6 ming nafar fuqaro uyushgan shaklda xorijga jo'natilgan bo'lib, ularning 85%i, ya'ni 15,2 ming nafari Rossiyaga yuborilgan.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish jarayonlari masalasi muhim vazifalari qatoridan o'rin olar ekan, bu borada tashqi mehnat

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi. (2008-2021), xizmat maqsadida foydalanilishi uchun

<sup>24</sup> O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi. (2021) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish ham dolzarb yo’nalishlardan biriga aylandi<sup>25</sup>.



3-rasm. 2021-yilda TMMA tomonidan xorijda ishga joylashtirilgan o'zbekistonlik mehnat migrantlarining mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishi, (%) da

4-rasm. 2022-yilda TMMA tomonidan xorijga uyushgan shaklda yuborilgan mehnat migrantlarining mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishi, (%) da

2019-yil 20-avgustda “Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a‘zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to‘g‘risida”gi PF-5785-son Farmonining 10-bandiga binoan “labor-migration” dasturiy ta‘minoti yaratildi<sup>26</sup>.

*Xususan, “labor-migration” dasturiy ta‘minoti quyidagilarni o‘z ichiga oladi:*

- vaqtinchalik chet elda ishlash istagida bo‘lgan fuqarolar uchun chet el davlatida bo‘lish qoidalari, yashash va mehnat sharoitlari, ishlash davlatida ijtimoiy va uy ta‘minoti, xorijiy ish beruvchilar bilan mehnat shartnomalari tuzishning huquqiy jihatlari, shuningdek qonunda belgilangan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni onlayn rejim orqali taqdim etish;

- Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va xususiy bandlik agentliklari faoliyati to‘g‘risida, shu jumladan ular ko‘rsatadigan xizmatlarning turlari va xarajatlari, xorijiy ish beruvchilar taklif etgan bo‘sh ish o‘rinlari, shuningdek ushbu ish joylariga ishga joylashish tartibi to‘g‘risida ma‘lumotlarni taqdim etish;

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlar, shu jumladan kasb-hunarga o‘qitish va qayta tayyorlash va malakasini oshirish, olingan moliyaviy yordam choralari, ko‘rsatilayotgan huquqiy va ijtimoiy yordam, xorijiy ish beruvchilar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari to‘g‘risida ma‘lumotlarning monitoringi;

<sup>25</sup> Abdurakhmanov K.K., Mukhitdinov E.M., Grishin, V.I., Abdurakhmanova, G.K., Kuchkarov, G.F. 2019. Labor migration of the population and evaluation of supply chain on the labor market, International Journal of Supply Chain Management 8, 896–907.

<sup>26</sup> www.labormigration.uz

- Chet elda qiyin vaziyatga tushib qolgan va yordamga muhtoj bo'lgan mehnat muhojirlari tomonidan arizalarni masofadan turib yuborish imkoniyati;

- Mehnat muhojirlari, ularning bandlik geografiyasi, faoliyat yo'nalishlari va turlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

*Yuqoridagi ma'lumotlarga binoan quyidagi vazifalar bajarildi:*

- Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining arizalari qabul qilindi;

- Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish istagini bildirgan fuqarolarning anketalari (rezyume) qabul qilinadi;

- Xorijiy davlat muassasalarining rasmiy veb-saytlaridagi mehnat masalalari bo'yicha ma'lumotlari joylashtirildi;

- Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan hamda xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolar uchun huquqiy ma'lumotlar joylashtirildi;

- Fuqarolarning uyushgan tarzda chiqib ketishiga yordam beradigan media-fayllar joylashtirilgan;

- Taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati joylashtirildi;


- Imtiyozli xizmatlar ro'yxati batafsil tavsifda joylashtirildi;

- Bo'sh ish o'rinlari ro'yxati e'lon qilindi;

- Rossiya Federatsiyasi Mehnat va aholi bandligi federal xizmatining "Rabota v Rossii" butun Rossiya bo'sh ish o'rinlari ma'lumotlar bazasi (trudvsem.ru) bilan "labor-migration" dasturi integratsiyalashtirilgan.

Xususan, 2022-yil 16-avgust holatiga "labor-migration" dasturidan jami 1624213 nafar fuqaro ro'yxatdan o'tgan, ushbu dastur doirasida 426 ta ish beruvchilar bilan shartnomalar tuzilgan, taqdim etilgan bo'sh ish o'rinlari 10658ta hamda jami 2186488 ta xizmatlar ko'rsatilgan.

2022-yil 10-avgust holatiga jami 609034 ta xizmatlar ko'rsatilib, ulardan 49 % i chipta sotib olish, 31%i sug'urta, 18%i ish izlash bilan bog'liq hamda jami 1619ta kreditlar ajratilgan bo'lib, 1% ni tashkil qildi.



*Manba: [www.labormigration.uz](http://www.labormigration.uz)*

**5-rasm. Labor migration dasturi doirasida jami ko'rsatilgan xizmatlar**

*Hozirda “labor-migration” dasturiy ta’minot to’plamining barcha funksiyalari ishga to’liq tushirilgan, jumladan:*

- mehnat migrantlari to’g’risidagi ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan;
- imtiyozli chiptalarni taqdim etish xizmatlari yo’lga qo’yilgan;
- imtiyozli sug’urta polisini taqdim etish xizmatlari yo’lga qo’yilgan;
- imtiyozli kredit berish xizmatlari yo’lga qo’yilgan;
- imtiyozli uy-joy olish uchun viloyat komissiyasiga taqdim etish uchun "Tasdiqnoma"ni taqdim etish xizmatlari yo’lga qo’yilgan;
- kasbiy ta’lim olish va chet tillarini o’qitishni istagan fuqarolarni yo’naltirish xizmatlari yo’lga qo’yilgan;
- "Ishchilarning ma’lumotlari yagona bazasi" shakllantirilgan;
- chet elda vaqtincha mehnat faoliyati bilan shug’ullanuvchi fuqarolarga yordam berish xizmatlari yo’lga qo’yilgan;
- fuqarolarni "Yagona migratsiya markaziga" yuborish xizmatlari yo’lga qo’yilgan.

Labor-migration veb-saytida va mobil ilovasida Rossiya Federatsiyasi mehnat bozori hudud va sohalar kesimida tahlil qilingan. 2022-yil holatiga Rossiya Federatsiyasi hududlari ichida asosan Samara, Krasnoyarsk, Rostov, Murmansk hamda Chelyabinsk viloyatlarida bo’sh ish o’rinlari yuqori. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi trasmiiy ma’lumotiga ko’ra Respublikamizdan 2021-yil tashkillashtirilgan tarzda 16278 kishi migratsiyani amalga oshirgan bo’lsa, ularning 80% i Rossiyaga yo’nalgan.

Shuningdek, saytda Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya, Janubiy Koreya, Qozog’iston mamlakatlari haqida ham ma’lumotlar berilgan. Xususan, BAA va Turkiya mehnat bozori bo’yicha saytlar ro’yxati keltirilgan.

Labor migration saytida Rossiya Federatsiyasi mehnat bozori sohalar kesimida chuqur tahlil qilingan. Ishlab chiqarish 17 % ni, ta’lim-fan 11 %ni, sog’liqni saqlash 10 %, qurilish 5%ni, axborot texnologiyalari 3% ni ya’ni 95 ta vakansiyani tashkil qildi.

2022-yil 10-avgustda mehnat migrantlari uchun “My migration” nomli mobil ilovaning yangilangan versiyasi ishlab chiqildi. Avvalgi mobil ilovada yuridik maslahat, sog’liqni saqlash, ijtimoiy himoya, tarjimon kabi xizmatlardan foydalanishi mumkin edi. Endilikda mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolar uchun ham yangi xizmat turlari ishga tushirildi.

“My migration” mobil ilovasi quyidagilardan iborat: geoaxborot xizmati; huquqiy axborot; to’lovlar xizmatlari; qo’shimcha imkoniyat. Shuningdek, xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan mehnat migrantlari uchun Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining vakolatxonalari, oziq-ovqat do’konlari va xostellar haqida ma’lumotlar olish imkoniyatlari yaratildi.

Shuni ta’kidlash lozimki, raqamli vositalar bir qator ahamiyatli vazifalarni hal qilishda, jumladan, axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, migratsiya qoidalarini soddalashtirish va unifikatsiya qilish, migrantlarning davlat xizmatlaridan foydalanishini osonlashtirish hisobiga migratsiyani davlat tomonidan boshqarish samaradorligi va sohada davlat nazoratining amaliy

natijadorligini oshirish, xususan, chekka hududlardan chiqqan ko'plab migrantlarni qamrab olishda muhim rol o'ynashi mumkin.

### **Xulosa va takliflar**

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 25-maqсадida raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirish va uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish belgilangan bo'lib, unga ko'ra optik tolali aloqa liniyalarining umumiy uzunligini 170 ming km. ga yetkazish, respublika bo'ylab, ayniqsa uzoq aholi maskanlarida, mobil aloqa sifatini yaxshilash maqsadida tayanch stansiyalarini umumiy sonini 42 mingtaga yetkazish va shu bilan birga taraqqiyot strategiyasining 86-maqсадida xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta'minlash hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish muhim vazifa qilib belgilandi. Unga ko'ra xorijga ishlashga ketishdan oldin fuqarolarni kasb-hunarga va chet tillarga o'qitish, ularga kasbiy malakani tasdiqlovchi xalqaro sertifikatlar berish borasidagi chora-tadbirlarni hayotga tizimli ravishda va jadal tatbiq etish, mehnat migrantlarini moliyaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash amaliyotini kengaytirish va mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan ularning bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish kabi masalalar dasturilamal qilib belgilandi.

O'zbekistonda internet foydalanuvchilari hozir deyarli 27 mln kishini tashkil qilishini inobatga olgan holda, deyarli barcha mehnat migrantlarini mobil ilovalardan foydalanish imkoniyatini hisobga olsak, mobil ilovalarni ishlab chiqish va migratsiya xizmati sayti orqali ma'lumotlarni taqdim etish bu jarayonni iqtisodiy jihatdan samarali qiladi. Bundan tashqari, onlayn dasturlar va tarmoqlar migratsiya bo'yicha mas'ul xodimlarga tuman va mahallalar darajasidagi muhim ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Agar tuman markazlarida yoki mahalla miqyosida markazlarda onlayn dasturlar yaratish imkoni bo'lmasa, chekka hududlarda samaradorlik va narx jihatidan mehnat migrantlariga ularning bandligini qo'llab-quvvatlash uchun hukumat xizmatlaridan foydalanishga yordam beradigan raqamli ilovalar ishlab chiqilishi kerak. Shuningdek, ularga jo'nab ketishdan oldin xizmatlar ko'rsatilishi va boradigan mamlakatlardagi qo'llab-quvvatlash xizmatlari hamda qaytishdan keyingi xizmatlar haqida qaror qabul qilishda yordam berish uchun ma'lumot olish imkoniyatini yaratish zarur. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, raqamli vositalardan foydalanish borasida mehnat migrantlarining jo'nab ketish vaqtlarini ham inobatga olish zarur: qisqa muddatli, mavsumiy yoki uzoq muddatli. Tayyorlov kurslari ham shunga qarab amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda respublikamiz mehnat bozoriga yiliga 700-750 ming ishchi kuchi kirib kelyapti va ishchi kuchining asosiy qismini yoshlar tashkil etishini hisobga olgan holda, aytish mumkinki raqamlashtirish sharoitida “Raqamli O'zbekiston 2030”, “1 mln dasturchilar” kabi o'z oldimizga qo'yilgan dasturlarni

hal etishda respublikamiz uchun mehnat migratsiyasini raqamlashtirish muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga quyidagi takliflar mualliflar tomonidan berildi:

- Jo'nab ketishdan oldingi bosqichda mehnat migrantlari foydalana oladigan raqamli dasturlar migratsiya bo'yicha zarur ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak (retsipient mamlakat qonunchiligi, ish haqi, ob-havo, mehnat sharoitlari, madaniyat). Retsipient mamlakatning muayyan tillari o'rganish uchun ilova sifatida yuklanib olinishi kerak;

- Retsipient mamlakat konsulligi, vakolatxonalarida haqida ma'lumot hamda barcha vakillarining ism-shariflari va aloqa ma'lumotlari ko'rsatilishi kerak;

- Qaytishdan keyingi bosqichda Rossiya Federatsiyasiga qayta kirishga taqiqlar ro'yxatini tekshirish imkoniyati va qayta ko'chish uchun tuzatish mexanizmlari, qonuniy qoidalar, hujjatlar talablari va boshqalar haqida ma'lumotni kiritish imkoniyati. Murojaatlarda pul o'tkazmalaridan samarali foydalanish, tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha o'quv kurslariga kirish yo'llari, grant dasturlari, kreditlar va boshqalar haqida ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin;

- Mehnat migratsiyasini tartibga solish uchun mobil ilova yaratish. Mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari traektoriyasi hamda hajmini shaffofligini ta'minlash maqsadida mobil ilova bo'limlariga alohida pul o'tkazmalari va jamg'arma bo'limlarini qo'shish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ш. Мирзиёев. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства». От 28 апреля 2020 г. № ПП-469922 <https://lex.uz/docs/4800661>

2. Ш. Мирзиёев. «Без цифровой экономики нет будущего у экономики страны», UzA, 22 сентября 2020 г. состоялось видеоселекторное совещание по вопросам внедрения цифровой экономики и электронного правительства в отраслях и регионах <https://uza.uz/ru/posts/prezident-bez-tsifrovoy-ekonomiki-net-budushchego-u-ekonomik-22-09-2020>

3. Ш. Мирзиёев. Указ Президента Республики Узбекистан, от 05.10.2020 г. № УП-6079 Об утверждении Стратегии «ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН-2030» и мерах по её эффективной реализации. <https://lex.uz/ru/docs/5031048>

4. К. Абдурахманов. Развитие ИКТ в гармонии с национальным менталитетом. «Бизнес DAILY Биржа», №82(2965), 25.10.2022 <file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/%D0%91%D0%98%D0%A0%D0%96%D0%90.pdf>

5. Sh.Mirziyoyev. 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” <https://lex.uz/docs/5841063>

6. Sh.Mirziyoyev. 2019-yil 20-avgustdagi PF 5785-sonli “Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston respublikasi fuqarolari va ularning oila a‘zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to‘g‘risida” <https://lex.uz/docs/-4482648>

7. Aneesh A. Virtual migration: The programming of globalization. Durham; London: Duke University Press, 2006. 208 p. DOI: 10.2307/j.ctv125jms5.

8. McCarthy, J. (2011). Computer Scientist Known as the Father of AI. Independent. Retrieved March 1, 2020, from <http://www.independent.co.uk/news/obituaries/john-mccarthy-computer-scientist-known-as-the-father-of-ai-6255307.html>

9. Xiang, B. (2014). The Would-Be Migrant: Post-Socialist Primitive Accumulation, Potential Transnational Mobility, and the Displacement of the Present in Northeast China. *Trans-Regional and National Studies of Southeast Asia*, 2(2), 183–199.

10. Kässi O., Lehdonvirta V. Online Labour Index: Measuring the Online Gig Economy for Policy and Research. MPRA Paper No. 74943. Oxford Internet Institute. 03.11.2016. 19 p.

11. De Stefano V. The Rise of the ‘Just-in-Time Workforce’: On-Demand Work, Crowd Work and Labour Protection in the ‘Gig-Economy’. *Comparative Labor Law & Policy Journal*. 2016. Vol. 37, No. 3. Pp.461–471

12. Русакова Т.Б. Сущность и направления развития виртуального рынка труда в Российской Федерации // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Экономические науки. 2019. Т. 12, № 5. С. 44–57. DOI: 10.18721/JE.12504

13. Islamov B., Kadirova Z., Gaziyeva S. Digitization measures in the regulation of labor migration processes in Uzbekistan // ACM, New York, NY, USA, ICFNDS '22, December 15, 2022. 328-337 pp.

14. Б. Исламов “Социально-экономические аспекты миграционных процессов в независимых странах Центральной Азии”, *Acta Slavica Iaponica, Journal of Slavic Research Center, Hokkaido University, Tomus XVI*, 1998, pp. 184-206.

15. Mansurov Saidnumon, Abdurakhmanov, Kalandar Islamov Bakhtiyor, Zokirova Nodira. 2022. Abdurakhmanov, Kalandar, Islamov Bakhtiyor, Zokirova Nodira, Hiwatari, Masato. Systemic Transformation and Sustainable Development: Case of Uzbekistan, Monograph, Jakarta, Gunadarma University Press, 2016 г., pp. 230.

16. Б.Исламов “Социально-экономические аспекты миграционных процессов в независимых странах Центральной Азии”, *Acta Slavica Iaponica, Journal of Slavic Research Center, Hokkaido University, Tomus XVI*, 1998, pp. 184-206.

17. Mansurov Saidnumon, Abdurakhmanov, Kalandar Islamov Bakhtiyor, Zokirova Nodira. 2022. The Application of Artificial Intelligence in Labour Economics: using migration from CIS countries to Russian Federation as an

example. <https://doi.org/10.1145/3584202.3584242> (doi: 10.1145/3584202.3584242);

18. Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi (SDC) 2018

19. МОТ. Цифровизация и будущее миграции. Презентация на круглом столе по трудовой миграции в Азии. Будущее трудовой миграции в Азии. Вызовы и возможности в следующем десятилетии. 7 февраля 2020 г.

20. МОТ. 2018. Как цифровизации поможет добиться справедливой миграции? 31 октября. [https://www.ilo.org/asia/media-centre/statements-and-speeches/WCMS\\_648541/lang--en/index.htm](https://www.ilo.org/asia/media-centre/statements-and-speeches/WCMS_648541/lang--en/index.htm)

21. АБР. 2020. Перспективы развития Азии – 2020. Как продвигаются инновации в Азии?

22. Kadirova Z., Gaziyeva S. Regulation of labor migration processes in Uzbekistan // Journal of marketing, business and management. Vol. 1 ISSUE 10. January 2023. 41-48 pp.

23. “Bugungi kunda O‘zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 27,2 milliondan oshgan” <https://kun.uz/uz/news/2022/01/10/ozbekistonda-internet-xizmatidan-foydalanuvchilar-soni-malum-qilindi>

24. Abdurakhmanov K.K., Mukhitdinov E.M., Grishin, V.I., Abdurakhmanova, G.K., Kuchkarov, G.F. 2019. Labor migration of the population and evaluation of supply chain on the labor market, International Journal of Supply Chain Management 8, 896–907.

25. [www.labormigration.uz](http://www.labormigration.uz)

26. Islamov B. and Chulliev T. 2020. International labor migration: theories and current trends. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Progressive Academic Publishing Vol.8 No.8. pp. 140-148.

27. Z. Kadirova and S.Gaziyeva. 2021. Theoretical bases of international labor migration processes, International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 1(2) 77-84

28. Gaziyeva S. 2020. Digitalization of labor migration is a new agenda for migrants’ contributions to societies of the world., International Scientific Journal Theoretical & Applied Science 4, 84, 208-215.